



Received: February 9, 2023
Accepted: March 18, 2023
Available online: March 25, 2023

Hamidulla Boltaboyev

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)
Toshkent, O'zbekiston

Dilrabo Kazakbayeva

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O'zbekiston

ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TUR VA JANRLAR, SHAKL VA MA'NO MUNOSABATI MASALALARI

ANNOTATSIYA

Mumtoz adabiyotda adabiy tur tushunchasi o'ziga xos ifoda shakllariga ega. U ko'proq adabiy tur nuqtayi nazaridan emas, balki janrlarga munosabat hamda ifoda shakllari nuqtayi nazaridan rivoj topgan. Arab adabiyotshunoslari she'rni "kalomi mavzunu muqaffo" (vazn va qofiyali gap) tushuntirganlari holda she'r nasrdan vazn va qofiyasi bilan farq qilinishini nazarda tutganlar. Ayni shu ta'rifdan kelib chiqib, she'riy janrlar masalasiga munosabat bildirilgan, ya'ni janrni hosil qiluvchi omillar sifatida ham vazn va qofiya yuzaga chiqqan. Shuning uchun ham arab va uning ta'siridagi fors adabiyotshunosligi adabiy tur va janrlar masalasiga alohida ilm turi sifatida yondashmaganlar. She'rdagi janriy o'zgarishlar asosida vazn yotgani uchun aruz vaznidagi she'r shakllari ilmi aruz tarkibida, qofiya ta'sirida vujudga kelishi mumkin bo'lgan janriy o'zgarishlar ilmi qofiya tarkibida o'rganilgan. Alisher Navoiy ham adabiy turlar masalasiga ifoda shakllari nuqtai nazaridan qaragan va buni adabiy nav'lar deb atagani holda she'riy janrlarni sinf istilohi bilan bergan: nazmning har sinfini qildim raqam. She'riy shakllarning janr xususiyatlari Navoiy talqinlarida ularning aruziy xususiyatlari bilan bog'lab tushuntirilgan.

Mumtoz adabiyotshunoslikda shakl va ma'no munosabati diniy-tasavvufiy talqinda ham, adabiy-istilohiy yo'nalishda ham

Hamidulla Boltaboev

Professor, National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek, Doctor of Philological Sciences (DSc)
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: hbaltaboev@mail.ru

Dilrabo Kazakbaeva

DSc Student, National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: dilrabokazakbaeva0707@gmail.com

ISSUES OF LITERARY TYPES AND GENRES, FORM AND CONTENT RELATIONSHIPS IN LITERATURE

ANNOTATION

In classic literature, the concept a literary genre has its own forms of expression. It has developed not from the point of view of the literary type, but from the point of view of the attitude to genres and forms of expression. Arab literary experts explain a poem as sentences with sense and rhyme, meaning that poetry differs from prose by sense and rhyme. Based on this definition, the issue of poetic genres has been treated, that is, sense and rhyme emerged as the factors that form the genre. That is why Arabic and Persian literature critical studies under the influence of the above mentioned issues have not approached the question of literary types and genres as a separate field of science. Since the sense is based on genre changes in the poem, the science of poem forms with aruz sense is studied in the structure of aruz, and the science of genre changes that can occur under the influence of rhymes is studied in the structure of rhymes. Alisher Navoi also looked at the issue of literary genres from the point of view of forms of expression and, calling it literary genres, he gave poetic genres with the term class (giving each class of the poem a number). Genre features of poetic forms are explained in Navoi's interpretations in connection with their expressive features.

In classical literature, the relationships between form and content acquire a special meaning both

alohida mazmun kasb etadi. Ushbu mazmun mumtoz adabiyotshunoslikning asosiy ilmiy muammolaridan sanaladi hamda zamonaviy adabiyotshunoslikdagi shakl va mundarija munosabatlarini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Falsafada ma'lum-u mashhur bo'lgan shakl va mazmun munosabati mumtoz adabiyotshunoslikda surat va ma'no birligida mujassam topadi. Bu birlik barcha falsafiy qarashlarda, ruhoniy holatlarda, tuyg'ular munosabatida aks etgan bo'lib, u ham tasavvuf falsafasining, ham mumtoz poetikaning poydevori sanaladi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, adabiy tur va janrlar, shakl va ma'no munosabati, arab, fors, turk adabiyoti.

in the religious-mystical interpretation and in the literary-ideological presentation. This content is one of the main scientific problems of classical literature and serves as a basis for studying the relationships between form and content in modern literature. The relationships between form and content, well-known in philosophy, are embodied in the unity of image and meaning in classical literature. This unity is reflected in all philosophical views, spiritual situations, emotional relationships, and it is considered the foundation of both Sufism philosophy and classical poetics.

Key words: classical literature, literary types and genres, relationships between form and content, Arabic, Persian, Turkish literature.

KIRISH

Arastu hakimning mimesis nazariyasi asosiga qurilgan adabiy turlar haqidagi ta'limoti Forobiy orqali Sharq adabiyotiga kirib kelgan bo'lsa ham, musulmon sharqida, asosan, adabiy turlar tasnifi jihatidan emas, ifoda shakllari yo'lidan borilgan. Fitratning "She'r va shoirlik" maqolasidagi "Turklar musulmonliqdan burun ham buyuk madaniy dong'li bir kun kechirganlar. Mana bu so'zni qabul qildikmi, "Turklarning musulmonliqdan burun ham she'rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi demakdan o'z boshimizni qutqara olmaymiz" degan so'zlari [Fitrat, 1919] nafaqat badiiy adabiyot taraqqiyotiga, balki adabiy-nazariy tafakkur tadrijiga ham taalluqlidir. Demak, mumtoz adabiyotni adabiy tur va janrlar nuqtai nazaridan o'rganganda islomdan burungi davr adabiy yodgorliklarining janr xususiyatlarini ham unutmazlik kerakki, bu yo'nalishda biz uchun muhim manba Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridir. "Men bu kitobni hikmatlar, saj', maqol, qo'shiq, rajaz va nasr deb atalgan narsalar bilan bezadim" deb yozganida buyuk alloma devondagi adabiy parchalarning janr xususiyatlarini ham nazarda tutgan bo'lishi kerak. Ayni mana shu so'zlardan kelib chiqqan prof. R.Orzibekov "Turkiy adabiyotlardagi tur va janrlar geneologiyasini o'rganishga doir ikki muhim manba"ning dastlabkisi sifatida Mahmud Koshg'ariy asarini ko'radi. "Devonu lug'atit-turk"dagi *etuk, otkunch, sav kabi nasriy va qo'shug', qo'nug, yir* singari she'riy janrlarning ilk izohini ham mana shu manba orqali tushuntiradi [Orzibekov, 2006; 4]. Samarqandlik boshqa bir olim A. Abdurahmonov "Turkiy adabiyotning qadimgi davri" qo'llanmasida yuqoridagilardan tashqari qadimgi turkiy adabiyotda mavjud bo'lgan *bilig, o'tluk, tabzug', sandruch, yig'i-yo'qlav, to'rtlik, tuyuq, olqish, qarg'ash, ko'g, irq bitigi, tangrikla* kabi janrlarga ma'lumot berish barobarida ularning namunalarini islomgacha bo'lgan adabiy manbalardan keltiradi [Abdurahmonov, 2005]. Taassufki, qadimgi turkiy adabiyotning janrlar olami haqida tasavvur beruvchi birlamchi nazariy manbalar yaxlit holda mavjud emas. Biroq Fitrat domlaning yuqorida tilga olingan maqolasida "Adabiyotimizning ikkinchi bo'limi musulmonliqdan boshlanadir. Adabiyotimizning

bu bo‘limi uchun kerak bo‘lg‘an negizlar va tamallarni bizga Eron orqali arablar yuborg‘anlar” degan fikrlariga asoslanib [Fitrat, 1996; 36], arab va fors manbalaridagi adabiy tur va janrlarga oid fikrlarni keltirishni o‘z vazifamiz deb bildik. Bu o‘rinda ko‘hna yunon adabiyoti xususiyatlarini arab tilida anglatgan Abu Nasr Forobiyning “Kitobu-sh-she’r” risolasidagi ushbu fikrlarni keltirish bilan cheklanamiz: “Ular (yunon adabiyotidagi janrlar quyidagilardir: (*trago‘ziyo*) *tragediya*, (*disirambi*) *difirambi*, (*kumuziya*) *komediya*, *yombi* (*yombu*), *drama* (*damoto*), *eyniy*, *diagramma* (*diakramma*), *satira* (*saturo*), *poema*, *epos*, *ritorika* (*ritoriy*), *efijonosous* va *akustika*” [Farobiy, 1993; 123]. Adabiyotshunoslik o‘z ichiga, avvalo, adabiyot tarixi va nazariyasi, adabiy tanqid va metodologiya masalalarini qamrab olar ekan, birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitratning ilmiy faoliyatida har uch jabha jamlanganini ko‘ramiz. O‘zbek adabiyoti tarixini izchil ilmiy tizimda tiklashni maqsad qilib olgan Fitrat eng qadimgi yodgorliklardan tortib to o‘z zamonasining ilg‘or taraqqiyparvar g‘oyalarini tashuvchi jadid adabiyotiga qadar kechgan ulkan davrni tartibga soldi. U ilk turk alloma va shoirlari Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib (Bolasog‘uniy), Adib Ahmad Yugnakiy asarlarining topilishi va nashrga tayyorlanishida faol ishtirok qildi, o‘zining “Eng eski turk adabiyoti namunalari” (1927), “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1928) kabi majmualarida mumtoz merosimizni ilk bor jamlab chop ettirdi. Mir Alisher Navoiy haqida ilmda birinchilardan bo‘lib ilmiy risola va maqolalar yozdi, navoiyshunoslikni jiddiy xatoliklardan holi etishga yordam berdi. Fitrat birinchi o‘zbek nazariyotchisi bo‘lgani tufayli san‘at va uning mohiyati, kelib chiqishi va turlari, xususan, so‘z san‘ati bo‘lgan badiiy adabiyot haqida jiddiy nazariy maqola va tadqiqotlar yaratdi. “Adabiyot qoidolari”, “Aruz haqida” singari qo‘llanma va tadqiqotlari, “She’r va shoirlig”, “San‘atning manshai” (kelib chiqishi) kabi maqolalari o‘zbek estetik tafakkurining shakllanishida muayyan ilmiy vazifani bajardi va shu vaqtga qadar o‘z qimmatini saqlab kelmoqda.

Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari o‘z zamonasi uchun har bir masalada qanchalik dolzarb hisoblansa, bugungi adabiy-tanqidiy tafakkurning yuksak rivojlangan pallasi uchun ham o‘zining juda ko‘p jihatlari bilan namuna bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, “Fitrat va fors adabiyoti” mavzusi alohida e‘tibor bilan o‘rganilishi lozim bo‘lgan sohaki, zullisonayn olim va adibimiz salohiyatining juda ko‘p noma‘lum qirralari ana shunda ko‘rinadi. Sharq adabiyotining hech bir ulug‘ ijodkori topilmaydiki, u haqda olim maqola, tadqiqotlarida yuksak tasavvur va ilmiy tayyorgarlik bilan o‘z fikrini bildirmagan bo‘lsa.

Filologiya ilmining tilshunoslik, etimologiya sho‘balariga doir olimning kuzatishlari XX asr o‘zbek tilshunosligi va folklorshunosligining shakllanishida o‘z o‘rnini ta’kidlab turibdi. Tarix va falsafa, tasavvuf va ilohiyot, musiqa va shaxmat nazariyasi kabi ziyolilarni o‘ziga band etgan madaniy jabhalarning har biriga Fitrat ilmda amaliy javob berib, qator tadqiqot, risola va maqolalar yaratgan.

MATERIALLAR VA USULLAR

Islomiy adabiy manbalarda adabiy tur va janrlar tasnifiga oid qarashlar *nasr* va *nazm*ni ifoda shakli sifatida farqlashdan, ularning xos xususiyatlarini aniqlab, nasriy

va she'riy asarlar tahlilida mana shularga amal qilinishni tavsiya qilishdan boshlanadi. Bu jihatdan mashhur arab olimi Qudama ibn Ja'farning "Naqdu-sh-she'r" va "Naqdu-n-nasr" asarlari e'tiborlidir. Ming yillar osha bizning davrimizgacha to'liq etib kelgan ikki asar ham G'arb olimlarining e'tiborida bo'lgan. "Kitobu-l-bayon" ham deb atalgan "Naqdu-n-nasr"da muallif nafaqat poetika mavzulari, balki nasrdagi adabiy masalalar: til, bayon, insho, yozuvchilikka va ilmi bade'ga hamda nutq madaniyatiga aloqador barcha masalalar haqida fikr yuritgan. Ovro'pada "Ritorika" nomi bilan mashhur bo'lgan "Naqdu-n-nasr" asarini faksimile tarzida nashr etgan va rus tiliga tarjima qilgan olim I.Y. Krachkovskiy bu asar muallifini yunon manbalariga munozarali qaragan, ularga qarshi o'laroq arab tili xususiyatlaridan kelib chiqib arab poetikasiga asos solgan va unga asosiy shakl bergan olim sifatida qadrlaydi [Krachkovskiy, 1956; 373-374].

Arab tilida "nasr" so'zining lug'aviy va istilohiy ma'nolarini izlaganda dastlab Qur'oni karimdagi "An-nasr" surasi yodga keladi: "Qachonki Allohning yordami va g'alabasi kelsa"... oyati karimasidagi bu so'z yordam, inoyat (1) ma'nolarida qo'llanilgan. Bundan tashqari nasr so'zining "g'alaba keltirish" (2), "himoyalanish" (3) kabi ma'nolari ham qayd etilgan [Baranov, 1985; 806]. "G'iyosu-l-lug'ot"da bu so'zning "yordam beruvchilar jam'i" (4) ma'nosi ham keltiriladi [G'iyosu-l-lug'ot, 1988; 344]. Ilk islom davri allomalaridan Abdul Hamid Kotib "nasr"ni "xitobalar majmuasi" (5) tarzida talqin etsa, Abu Bakr Xorazmiy "Qur'oni karim sharhlarining yig'indisi" (6), ya'ni tafsir ma'nosida qo'llagan. Badiuzzamon Hamadoniyning "Maqoma"lari-da musoviy an'analar bilan islomiy aqidalar o'rtasidagi bahs-u munozaralar ham "nasr" (7) istilohi bilan anglatilgan [Fuad Koprulu, 1980; 108-109]. Biroq yuqoridagi ma'nolarning hech biri adabiy istiloh sifatida qabul qilingan "nasr"ga to'la mos kelmaydi. Chunki adabiy istiloh sifatida bizga tanish bo'lgan "nasr"ning arab tili lug'atlarining so'nggi nashridagi ma'nosi "sochilmoq, tarqalmoq" so'ziga to'g'ri keladi [Arabcha-o'zbekcha lug'at, 2003; 806].

Alisher Navoiy asarlarida bo'lsa, bu so'zlar nafaqat adabiy istiloh ma'nosida qo'llanilgan, balki ularning ma'no va ifodaviy mazmunlari ham anglatilgan. Hazrat Navoiyning "nasr qaro erga sochilmoqlig'i" misrasida "nasr" so'zining adabiy istiloh sifatidagi ma'nosi ham "sochmoq"dan olinganiga ishora bor. Darhaqiqat, ayni so'z arab tili lug'atlarida yuqoridagi ma'nolardan (ular "sod" va "sin" bilan yozilgan edi) farqlanib (biz kutgan ma'nodagi nasr "se" bilan yoziladi), "sochilgan" ma'nosini anglatadi. Demak, adabiy istiloh sifatidagi ma'no so'zning lug'aviy ma'nosiga mos kelishi Navoiy tomonidan eslatilgani uchun ham 20-yillar adabiyotshunosligida Fitrat va Abdurahmon Sa'diy arabcha "nasr" yoki ovro'pacha (ruscha ham) proza (lotin tilida "faqat olg'a yuruvchi, ortga qaytmaydigan") [Pospelov, 1988; 353] o'rniga "sochim", "sochma" adabiy istilohini qo'llagani Hazrat Navoiyning talqinini davom ettirganidan darakdir.

Navoiy hazratlari nasrning xos xususiyatlarini sharhlash orqali aytilmoqchi bo'lgan fikrning yangi inja qirralarini ochib berishni ham lozim biladi:

*Nasr andaki, anjom ila og'oz erdi,
Har lafzi aning moyayi e'joz erdi.*

Agar (yozganing) chin mohiyat, ya'ni oqibat natijani ifoda qilsa, uning har lafzi asl mo'jiza bo'lsa, o'shanda nasr tugal bo'ladi. Bunday zohiriy ma'nodan tashqari "anjom ila og'oz" jihati, ya'ni "nujum bila boshlamoq"ni ham nazarda tutadigan bo'lsak, Navoiyning nasriy asarlarga bo'lgan talabi nazmnikidan kam emas, balki undan ziyodaligini uqish mumkin. "Layli va Majnun" da shunday qiyosiy ta'rif mavjud:

Ham nazming nasrdek kelib xo'b,

Ham nasring nazmdek diloshub.

Navoiy agar nazming (she'rlaring) nasrdek yaxshi tushunarli bo'lsa, nasring ham nazmdek dildan, ehtirosli qabul etilsa, deb adabiy niyat qilgan ediki, "Mahbub ul-qulub"ning nasriy va uslubiy tajribasi bu niyatga erishganligini tasdiqlaydi.

Nasr va nazm bahsida Navoiyning nazmga ustivor xoslik tilaganini ham unutib bo'lmaydi. Albatta, bu "nazmning har sinfini raqam qilgan" ulug' san'atkor uchun nasrning murakkab ifoda usullari og'ir kelganini ko'rsatmaydi, balki turk lafzi og'ir va zalvorli edi, uni nazmga solganlar ham mana shu og'irlikni dildan tuygan va unga munosib shakl va vaznlar topa bilgani mumtoz adabiyotga oshno bo'lganlar uchun tushunarli hol.

20-yillar adabiyotshunosligi birgina Fitratning "sochim, tizim" istilohlari bilan cheklanib qolmagan, mohiyatga munosib turkcha istilohni izlashda davom etgan. Xususan, A.Sa'diy ishlarida esa "yurakchilik va ko'chirik" atamalarini tavsiya etganini unutmaslik kerak [Sa'diy, 1924]. Biroq olim tavsiya etgan yuqoridagi istilohlar, bizningcha, "nazm, nasr" o'rniga emas, "lirika va epos" singari adabiy turlarga nisbatan qo'llanilganda maqsadga yaqinroq kelingan bo'lar edi. Shuni ham unutmaslik lozimki, shu kun adabiyotshunosligida ham ba'zan "lirika va epos" o'rniga "nazm va nasr" atamalarini qo'llash hollari ham uchramoqdaki, bunday qo'llanish nazariy jihatdan jiddiy xatoga yo'liqish bilan barobardir. Chunki adabiy tajribaning ko'rsatishicha, "lirika" har doim ham "nazm" bilan, "epos" esa har doim ham "nasr" bilan ifodalanmagan. Nasriy yo'lda ifodalanishi mumkin bo'lgan lirik turdagi asarlar (masalan, mansuralar) va she'riy yo'l bilan bayon qilingan epik asarlar (she'riy roman yoki qissa)ning ham mavjudligi bunday qo'llanilish faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham xato ekanligini anglatib turibdi.

"Nasr, nazm" istilohlarini ovro'pacha "proza, poeziya"ning ham ayni ma'no jihatdan muqobili sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Chunki "adabiyot-literatura" tushunchalari o'rtasiga har doim ham tenglik alomatini qo'yib bo'lmagani adabiyotshunoslarga ayon. Ovro'pa nazariyotchilari adabiyotni "litera- yozmoq" so'zi bilan bog'lab anglatadilar. Sharqda, ayniqsa, mumsulmon sharqida esa, "adabiyot – odobi kulliyot" sifatida sharhlangani uchun ham ko'proq nazariy manbalarda "adaba", ya'ni hikmatlar yig'indisi sifatida talqin qilingan. Ushbu talqindan kelib chiqib ilk nasr namunalari sifatida muqaddas kitoblardagi rivoyatlar, toshbitiklardagi lavha va yozuvlar, islomiy adabiyotdagi xitoba, maqomot va manqabalar, tarixiy yilnoma, va umuman, nasriy nomalar misol sifatida keltiriladi.

Mumtoz adabiyotshunoslikning nodir namunasi sanalgan Shayx Ahmad

Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asarida “nasr va nazm” istilohlarini yozma adabiyotning ifoda yo‘llari ma‘nosida farqlab, ularga adabiy nav‘lar unvoni berilgan. Nasr adabiy nav‘ (tur) sifatida talqin etilar ekan, tabiiyki, unga mansub janrlar ham mavjud bo‘ladi. Shu jihatdan islomiy adabiyotdagi nasriy janrlar xususida fikr yuritganda, *xitoba*, *va‘z*, *tafsir*, *manqaba*, *maqomot*, *niqra*, *munozara*, *masal*, *adaba* kabi nasriy janrlar shu davr allomalari tomonidan keltirilgani manbalarda qayd etilganini eslash lozim [Boltaboyev, 2004; 22-23].

NATIJALAR

Qudaba ibn Ja‘far “Naqdu-sh-she‘r” asarida she‘r tanqidi bilan bog‘liq barcha jihatlar haqida gapirganda, vazn, qofiya, badiiy san‘atlar, nutq go‘zalliklari barobarida she‘riy shakllar masalasiga ham to‘xtalgan [Ja‘far, 1303]. Undan keyingi arab olimlari al-Johiz (ukkiko‘z) nomi bilan mashhur bo‘lgan, basralik asli ismi Abu Usmon Amr ibn Bahr (780-869) hamda andalusiyalik Ibn Xaldun asarlarida ham she‘riy shakllar mana shu tartibda o‘rganilgan [Krachkovskiy, 1956]. Biroq turk adabiyotshunosligining mumtoz namunasi sanalgan Shayx Ahmad Taroziyning asarida adabiy tur va janrlar masalasiga aruz, qofiya, san‘atlar va muammo ilmidan avval to‘xtanilgani holda o‘zining sharq mumtoz poetikasi nazariyasiga doir asarini she‘riy shakllar tasnifi bilan boshlagan. “Fununu-l-balog‘a”da “Aqsomu-sh-she‘r” (She‘r taqsimi) rukni ostida quyidagi 10 ta she‘r nav‘i tasnif qilingan: *qasida*, *g‘azal*, *qit‘a*, *ruboiy*, *masnaviy*, *tarje*, *musammat*, *mustazod*, *mutavval* va *fard*” [Taroziy, 1996; 4]. Olim ushbu tasnif bilan cheklanmasdan har bir she‘riy janrning mohiyati, o‘zgarishi, tamsillari va boshqa jihatlarini jiddiy tahlildan o‘tkazgan.

Alisher Navoiy ham adabiy turlar masalasiga ifoda shakllari nuqtai nazaridan qaragan va buni adabiy nav‘lar deb atagani holda she‘riy janrlarni sinf istilohi bilan bergan: nazmning har sinfini qildim raqam. She‘riy shakllarning janr xususiyatlari Navoiy talqinlarida ularning aruziy xususiyatlari bilan bog‘lab tushuntirilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida mumtoz lirika janrlari bo‘yicha jiddiy mashg‘ul bo‘lgan olim R.Orzibekov tadqiqotlarida lirik janrlar tasnifi uch yo‘nalishda amalga oshirilgan: 1) mazmun jihatidan lirikaning janrlari; 2) shakl jihatidan va 3) misralar soni va band tuzilishiga ko‘ra. Dastlabki jihatga hasbi hol, marsiya, chiston, qasida, muammo, vaf, yor-yor, bag‘ishlov, debocha, nazira, faxriya va vasiyat she‘rlari kiritilgani holda shakl jihatidan lirikaning janrlari sifatida mustazod, muvashshax, mushoara, shiru shakar, qit‘a, g‘azal, tuyuq, ruboiy, masnaviy, fard, tarkibband va tarj‘iband keltiriladi. Nihoyat, misralar soni va band tuzilishiga ko‘ra esa musammatlar va ularning shakllari nazarda tutiladi. Olim ushbu tasnifni dastlabki tadqiqotlarida amalga oshirgan bo‘lsa ham so‘nggi monografiyasida ham yana mana shu tasnif asosida ish ko‘radi [Orzibekov, 2006; 9-10]. Bizningcha, ushbu tasnifdagi birinchi va ikkinchi jihatlar o‘zlarini mohiyatan to‘la oqlamaydi. Chunki olim mazmunni asos qilib olgan janrlar shakl jihatdan ham ma‘lum xususiyatlarga ega va shakl asnosiga qurilgan deb atalgan qit‘a, g‘azal, ruboiy, masnaviy, fard va boshqalar qofiya va bandlar miqdorini (uchinchi tasnif) ham o‘zida aks ettirganlar. Ma‘lumki, mumtoz poetikada bandshunoslik (G‘arb istilohi bilan aytganda strofika) alohida ilm sifatida

qaralmagan. Ular, ko‘pincha, qofiya ilmi tarkibida bayon qilingan. Shunday ekan, bizningcha, she‘riy janrlarni mohiyatan keskin farq qilmaydigan bunday jihatlar bo‘yicha qayta tasnif qilish o‘rniga ularga asos bo‘lgan aruziy va qofiya omillarini o‘rganish maqsadga yaqinroq natija berishi mumkin. Bu holatni arab poetikasi tarixiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar ham tasdiqlashi mumkin [Kudelin, 1983]. Bu jihatdan she‘riy janrlar haqida maxsus risolalar bitmagan bo‘lsa-da, turk ilmi rivoji uchun Alisher Navoiy va Fuzuliy qarashlari e‘tiborli. Ulug‘ shoirlarning ayrim mumtoz janrlar haqidagi qarashlarini berish barobarida she‘riy janrlar nafaqat allomalar tomonidan, balki bevosita badiiy ijod bilan shug‘ullangan shoirlar tomonidan ham ularning xos va inja jihatlari o‘rinli qayd etilganligining guvohi bo‘lamiz.

Shu o‘rinda XX asr boshlarida Ovro‘pa tipidagi adabiyot nazariyalarini shakllantirish borasida Sharq poetika maktabiga qayta-qayta murojaat qilib, undagi omil va jozib sifatlarni o‘rgangan olim Fitratning she‘riy janrlar sharhiga bag‘ishlangan qarashlarini ham keltirishni lozim topdik. Zero, “Adabiyot qoidalari” mumtoz poetika bilan zamonaviy adabiyot nazariyasini tutashtiruvchi o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tagani uchun ham bunday benazir vositaga tayangan holda o‘tmish she‘riyatiga nazar tashlash ham mumkin ekanini olimning nazariy qarashlari asoslaydi. Shu bilan birga Fitrat domla “Fors shoiri Umar Xayyom” asarida nafaqat ulug‘ riyoziyot olimini dunyoga shoir sifatida tanitgan ruboiy janri haqida, balki saljuqlilar saroy adabiyotida urf bo‘lgan qator she‘riy janrlar haqida ham ma‘lumot bergan.

Tabiiyki, barcha ilmlar kabi adabiyot ilmi ham doimo taraqqiyotda, har bir yangi yozilgan genial va original asar uning janriy jihatlarini yangilashi mumkin. Shunday ekan, yuqorida tavsiya etilgan qarashlar mumtoz she‘riyat namunalarini o‘rganishda shu kun kitobxonlariga dusturulamal bo‘lgani holda adabiy tur va janrlar borasidagi mumtoz adabiyotdagi qarashlar keltirilayotgan manbalardagi qarashlar faqat shulardangina iborat deb bilmaslik kerak. Zero, qanchadan-qancha ilmiy risolalar borligini ham unutmazlik lozim.

Mumtoz adabiyotshunoslikda *shakl va ma‘no* munosabati diniy-tasavvufiy talqinda ham, adabiy-istilohiy yo‘nalishda ham alohida mazmun kasb etadi. Ushbu mazmun mumtoz adabiyotshunoslikning asosiy ilmiy muammolaridan sanaladi hamda zamonaviy adabiyotshunoslikdagi *shakl va mundarija* munosabatlarini o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Falsafada ma‘lumu mashhur bo‘lgan shakl va mazmun munosabati mumtoz adabiyotshunoslikda *surat va ma‘no* birligida mujassam topadi. Bu birlik barcha falsafiy qarashlarda, ruhoniylar holatlarda, tuyg‘ular munosabatida aks etgan bo‘lib, u ham tasavvuf falsafasining, ham mumtoz poetikaning poydevori sanaladi. Islom allomalari surat va ma‘no nisbatini Qur‘oni karimdagi *juz’ va kull* tafsiridan kelib chiqib sharhlaydilar [Qur‘oni karim, 1992]. Buning eng yorqin ifodasi Farididdin Attorning Tavhid asrori talqinida yozilgan “Javharu-z-zot” asarida ko‘rinadi [Attor, 1994; 74]. Farididdin Attor javhar sifatida mutlaq ruhning sirini belgilaydi. Mutlaq ruh, ya‘ni Haq (Kull) insoniy, maxluqiy yoki narsalar suratida zohirdir. Nur orqali *juz’*, ya‘ni yaralmishning barcha sifatlari namoyon bo‘ladi. Lekin nur Kullning barcha sifvatlarini ko‘rsatib berolmaydi. Shundan kelib chiqib, ruh Yaratganning izmidadir. Yaralmishlarning hayoti esa mana shu Kullning zohiri, tashqi

ko‘rinishi bo‘lib, u surat shaklida jilvalanadi.

Jaloliddin Rumi falsafasida *ma‘no ishq* talqinida aniqlanadi, *surat* esa *ishq nuridir*. U ishqsiz qiymatdan mahrum. Ishq ma‘no, mohiyat kasb etar ekan, u mazmunni ifoda qiladi. Mazmun, ma‘no nuri esa surat bo‘lib jilvalanadi. Ishq bo‘lmasa, nur ham bo‘lmaydi. Ishqning o‘zi nursiz, suratsiz bizga etib kelmaydi. Shundan kelib chiqqan holda, ma‘no suratga – shaklga nur bo‘lib quyilishi, shakl – surat esa, mazmunga aylanib ma‘noni ifoda qilishi mumkin. Rumiyning bunday falsafiy qarashlari “Masnaviyi ma‘naviy” asarida umumiy tarzda, turli rivoyat va hikoyatlar mazmunida beriladi. “Fihi ma fihi” (“Nimaiki Undadir – Undandir”), ya‘ni o‘zbek tiliga “Ichindagi ichindadir” tarzida o‘girilgan asarda [Rumi, 1997] bu nisbatiy tushunchalar surat va ma‘no falsafasi sifatida anglatiladi: “*Ma‘noga yuzlanishni inson dastlab unchalik sevmaydi. Biroq vaqt o‘tgan sayin yoqtira boradi. Bu jarayon suratda (shaklda) aksincha kechadi. Chunki surat boshida xush va latif tuyuladi, biroq u bilan qanchalik ko‘p birga bo‘lganing sari undan shunchalik tez sovub borasan. Qur‘onning surati qayda-yu ma‘nosi qayda! Xuddi shunday insonga boq! Agar inson suratidan ma‘nosi ketsa, jasad qoladi. Jasadni esa hech kim ushlab turmaydi*” [Rumi, 1997; 79]. Boshqa bir o‘rinda Rumi hazratlari surat va ma‘ni nisbatida mag‘iz va danakni misol qiladi. Danakni qo‘lga olishdan maqsad, uning ichidagi mag‘izga erishish. Mag‘izga erishish uchun surat (darak)ni sindirasan. Go‘yoki, danak kerak emasday, ortiqcha qobiqday tuyuladi. Biroq mag‘izni urug‘ sifatida ekmoqchi (yerga) bo‘lsang, uni qobiqsiz eka olmasan. Qobiqsiz ekilgan mag‘iz ko‘karmaydi, hosil bermaydi. Demak, surat bizga nomuhimday ko‘rinsa ham uni ma‘nodan ajratib ko‘rish ma‘nisizlikdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holatda shakl va mazmun, surat va ma‘no haqidagi nazariy fikrlar berilgan asarlarni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

№	Mualliflar	Asar nomi
1.	Qur‘oni karim	An-nasr
2.	Qudama ibn Ja‘far	Naqdu-sh-she‘r Naqdu-n-nasr
3.	Ibn Qutayba	Ash-Shi‘r va ash-shu‘ara‘
4.	Sezgin F	Geschihte des arabischen Schrifttums
5.	Al-Askari G‘iyosu-l-lug‘ot	Divan al-maoni Jildi do‘vvum
6.	Abu Nasr Forobiy	Kitobu-sh-she‘r Fozil odamlar shahri
7.	Farididdin Attor	Ilohiynoma
8.	Jaloliddin Rumi	Ichindagi ichindadir
9.	Mahmud Koshg‘ariy	Devonu lug‘atit turk
10.	Abdurahmon Jomiy	Silsilatu-s-zahab
11.	Shayx Ahmad Taroziy	Fununu-l-balog‘a
12.	Alisher Navoiy	Hayratu-l-abror
13.	Abdurauf Fitrat	Adabiyot qoidalari She‘r va shoirliq
14.	Fuad Koprulu	Turk Edebiyati Tarihi
15.	Б.В. Томашевский	Теория литературы Поэтика

16.	Б.В. Шкловский	О теории прозы
17.	Б.Эйхенбаум	О прозе О поэзии
18.	А.Б. Куделин	Средневековая арабская поэтика (вторая половина VIIII-XI век)
19.	В. М. Жирмунский	Теория литературы Поэтика
20.	И.И. Крачковский	Избранные сочинения Арабская поэтика IX века
21.	Х.К. Баранов	Арабско-русский словарь
22.	Г.Н. Пospelova	Введение в литературоведение
23.	A.Abdurahmonov	Turkiy adabiyotning qadimgi davri
24.	R.Orzibekov	O'zbek lirik she'riyati janrlari Adabiy merosimiz sehri Turkiy adabiyotlardagi tur va janrlar geneologiyasini o'rganishga doir ikki muhim manba
25.	H.Boltaboyev.	Mumtoz so'z qadri Sharq mumtoz poetikasi
26.	D.Kazakbayeva va boshq.	O'zbek mumtoz adabiyotida tarji'band va tarkibband janrlari

Rumiy falsafasi tez orada G'arb mutaxassislarining e'tiborini tortgani, Gyote asarlarida go'zal, izchil talqin qilingani, nihoyat, olmon mumtoz falsafasining cho'qqisi sanalgan Gegel ta'limotida o'zining tugal isbotini topgani fanga ma'lum. Gegelning "inkorni inkor" qonunining mohiyati Rumiy falsafasining mag'zida bor. Bug'doy (don) o'z shaklini o'zgartirib (taraqqiy ettirib), Gegelcha aytganda, inkor qilib, boshqoq bo'ldi. Boshqoq o'z shaklini inkor etishi bilan taraqqiyot uni yana bug'doyga aylantirdi. Demak, dialektik taraqqiyot inkorni inkor asosiga qurilgani bilan, shakl va mohiyat o'z borligini yo'qotmaydi. Faqat shakl mazmunga quyiladi, mazmun esa o'z shaklini o'zgartiradi. O'zini Gegelning iqtidorli shogirdlaridan sanab, yangi estetik tizim yaratmoqchi bo'lgan rus munaqqidi V.Belinskiy ham yuqoridagi tafsillarni badiiy asarga nisbatan qo'llab, agar mazmunni shakldan ajratmoqchi bo'lsang, uni shakl bilan baravar o'ldirasan. Yoki shaklni alohida o'zini olmoqchi bo'lsang, u holda mazmun bilan birga shaklni ham o'ldirgan bo'lasan kabi tushuntirishni tavsiya etgani sir emas. Bu kabi talqinlar ayrim yuzaki tamsillardagi shakl – idish, ma'no esa ichidagi suyuqlik yoki shakl qon tomiri bo'lsa, ma'no unda jo'sh urib oqayotgan qon kabi tushunishlar chekli ekanini anglatadi. Chunki idishdagi suyuqlikni to'kish mumkin bo'lganiday, qonni tomirdan ajratish mumkin. Lekin bu bilan har ikkalasiga yoki ularning birortasiga ham hayot bag'ishlab bo'lmaydi, ular o'zaro mavjudlikdagina yashashda va taraqqiyotda bo'ladilar.

MUNOZARA

Arab mumtoz poetikasining asosiy unsurlaridan sanalgan *ma'ni* va *lafz* mohiyat hamda uning so'z qolipi ma'nosida qo'llanilgan, an'anaviy mazmunning individual muallif talqinidagi ifodasi sifatida qabul qilingan. Arab poetikasining asosi sanalgan *ma'no* istilohi mashhur G'arb arabshunos olimlari tomonidan "fikir, g'oya" (Goldsier, 1896; Krachkovskiy, 1927), "poetik motiv" (Gryunebaum, 1944; Ritter, 1954), "fikir, mohiyat, obraz" (Shidfar, 1974) deb tarjima qilingan bo'lsa, *lafz* (*ko'pligi – alfoz*) – "ifoda" (Goldsier, 1896), "so'z, ifoda" (Gryunebaum, 1944), "ifoda, tovushlar birikmasi" (Krachkovskiy, 1927), "so'zlar, nutq ifodasi" (Kiktev, 1969; Ritter,

1974) [Kudelin, 1983; 7] tarzida ruschaga o'girilgan. Ushbu tarjimalardan ma'lum bo'lishicha, *ma'no* mazmun, g'oya va mohiyatni anglatgan bo'lsa, *lafz* uning material jihati, ya'ni tovush, so'z orqali ifodalanishini bildirgan. Shundan kelib chiqqan holda *ma'no* zamonaviy istiloh bilan aytganda, *poetik motiv*; *lafz* esa *ifoda vositasi* (*so'z bilan*) deb qabul qilingan. Mashhur arab olimlaridan Ibn Qutayba "She'r va shoirlar kitobi" (850-870) asarida badiiy matnlarni ma'no va lafzga ko'ra quyidagi turkumlarga ajratgan: 1) yaxshi lafz va ma'noli asarlar; 2) lafzi yaxshi va ma'nosi yomon asarlar; 3) lafzi yomon va ma'nosi yaxshi asarlar; 4) lafzi yomon va ma'nosi ham yomon asarlar [Ibn Qutayb, 1969]. Bunday tasnifga kelishda muallif lafz va ma'noni birikturuvchi nisbat (e'tilof) sifatida ularning o'zaro teng kelishi (musavat)ni nazarda tutadi. Ibn Qutayba talqinicha, agar ma'no lafzga to'la mos kelsa, u badiiyat (balog'a)ga erishgan bo'ladi. Qudama ibn Ja'far (v. 922/948) esa "Naqdu-sh-she'r" asarida "tugal ma'noga lafz qo'shimcha qilmasa yoki ma'noni buzuvchi unurni lafzga qo'shmasa" asar etuk bo'lishini ta'kidlagan. Bu jarayonda olim "vazn talabi bilan keraksiz so'z (ma'noga xizmat qilmaydigan) hisobiga baytni to'ldirish (xashv)ni she'rdagi jiddiy nuqson" deb belgilagan [Ja'far, 1956; 136]. Ko'rinadiki, o'rta asrlar arab poetikasida ham ma'no va shakl birligi adabiyotning asosiy qonunlaridan sanalib, ularning o'zaro me'yor va muvofiq kelishi badiiy matnning etukligini anglatuvchi balog'at belgisi hisoblangan. Arab mumtoz poetikasida *ma'no* va *lafz* munosabati haqida o'nlab risolalar yaratilgan. Biz keyingi tadqiqotlarga asos bo'lishi mumkin degan umid bilan ularning ayrimlarini sanash bilan cheklanamiz: Mufaddal Dabbi (v. 780/787) "Kitab ma'ani ash-shi'r", ayni shu nomdagi Abu Sarvan al-Ukli (VIII asrning 2-yarmi), Ibn Kunas (v. 823-825), Asmai (v. 825-832), Said ibn Masada al-Axfash (v. 830). Ibn Arabiy (v. 846). Abu-l-Amaysal (v. 854), Ibn Qutayba (v. 889), Buxturi (v. 897), Salab (v. 904), Naxxas (v. 950), Ibn Abdus (v. 859-860) singari olimlarning asarlarini va "Kitabu-l-ma'ani" nomli Muarrij Sadusi (v. 819), Nadr ibn Shumayl (v. 818-820), Ali Rayhoni (v. 834) kabilarning asarlarini keltirish mumkin. Ushbu mavzuda noma'lum muallifning "Majmuatu-l-ma'ni" nomli to'plami bizgacha etib kelgan va 1884 yili Leydenda nashr qilingan [Sezgin, 1975]. Hatto Askariy "Devonu-l-ma'ni" nomli asarlar katalogini tuzib, bu yo'nalishdagi 100 dan ortiq risolalarga tavsif bergani arabshunoslik ilmiga ma'lum [Askariy, 1983]. Arab mumtoz poetikasidagi ushbu fundamental qarashlar asosida Ajamda ham ma'no va lafz haqidagi qarashlar kengayganini fors va turk tilidagi risolalar talqinidan ham bilish mumkin.

Abdurahmon Jomiyning "Silsilatu-s-zahab" asarida so'zga ta'rif berish barobarida uni "ma'no daryosining gavhari" deb tushuntiradi: "So'zning butunligi, mag'zi, mohiyati ma'no bilandir, chunki ma'no ko'rki lafz bilandir" [Jomiy, 1971]. Lafz (til) ma'noning zohiridir, ma'noni so'z, tilsiz ifoda qilib bo'lmaydi. Chuqur ma'no berish uchun esa ko'rkli lafz kerak. Ma'no lafz bilan ko'rkli bo'lgani kabi, lafz ham ma'no go'zalligi bilan ko'rkli bo'ladi. Bu buyuk ikkilikni butun va go'zal holda ko'rish uchun ularni doimiy yaxlitlikda bilish va qabul qilish lozim bo'ladi.

Shuning uchun ham Alisher Navoiy "Bir necha so'z ul ma'nidakim, so'zdag'i ma'ni jone dururkim, so'z qolibi onsiz qolibe dururkim, jonsiz va ani topmoq ishini kishi bilmas, balki ani topqon kishi topilmas va ahli g'azof noin softligiga munsif

bo'ymoq, balki o'z g'azofiga insof berib, alarning uzrin qilmoq" [Navoiy, 1991; 62] degan talqin bilan maxsus maqolat yozadi. Ma'no haqida so'z yuritganda, u so'z qolipining jonidir, jonni kolipdan ajratib bo'lmaydi, shunday ekan, ma'no va surat ajralmas bir mohiyatdir. Uni nazmda ko'rmoqchi bo'lganlar, ularni bir butunlikda ko'rishlari, vazn va bahr kabi zohiriy sifatlarni, she'rning jonidan ajratmasligi, aksincha, qolip jonga munosib kelgandagina jozib bo'ladi. Tuyuq bahrini anglamagan kishi, qo'shiqni tuyuqdan farqlay olmaydi. Lafzi bemaza, tarkibi sust asarda ma'ni ham nosara va uning xulosasi nodurust bo'ladi:

*Anglamayin so'zda tuyuq bahrini,
Qaysi tuyuq, balki qo'shuq bahrini.
Lafzalari bemaza, tarkibi sust,
Nosara ma'niyu ado nodurust.
Borchasiga da'viyi ma'niyi xos,
Xoslarim topmay alardin xalos.*

Demak, surat va ma'no munosabati biri ikkinchisini taqozo qilgan, faqat o'zaro mavjudlikdagina harakatga kelishi mumkin bo'lgan jon va jasaddir. Diniy tushunchaga ko'ra jon, jasad tarzida namoyon bo'lgan bu talqin tasavvufda yanada chuqurlashib, *ruh-jon-nafs* tarbiyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Adabiyotshunoslik ilmida ham shakl mazmunga etkazuvchi vositadir. Mazmun esa shakl vositasida etkazilayotgan mohiyat, ifoda qilinayotgan narsa. Har bir narsa yoki holat shakl va mazmuniy jihatni o'zida qamrab oladi yo aks ettiradi. Demak, shakl va mazmun munosabati mumtoz adabiyotshunoslikda ancha mukammal ishlangan poetik hodisa sifatida tushuniladi. Shakl va mazmunni o'zaro qarama-qarshi nisbatda emas, balki biri ikkinchisini to'ldiruvchi va taqozo kiluvchi tushunchalar sifatida o'rganiladi. Bunday talqin zamonaviy adabiyotshunoslikdagi shakl va mundarija munosabati uchun poydevor sanalgan. Rus shaklshunoslik maktabi (formalnaya shkola) vakillari ham badiiy adabiyotning o'zagi sanalgan bu muhim ilmiy muammoni hal etishda Sharq mumtoz poetikasi asoslariga tayanganlar. V.Shklovskiy, B.Jirmunskiy va E.Polivanov kabi olimlar avval Sharq poetika maktabi sirlarini OPOYAZ (Общество поэтического языка – Badiiy til jamiyati) vositasida obdon o'rganganlaridan keyingina o'zlarining shakl nazariyasiga doir ishlarini amalga oshirganlar.

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotshunosligini shakllantirishda yangi nazariy talqinlar izlagan olimlardan biri Abdurauf Fitrat bu munosabatlar silsilasini o'zining Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Boborahim Mashrab asarlari talqini jarayonida amaliy faoliyatda qo'llagan bo'lsa, ilk nazariy qo'llanma sanalgan "Adabiyot qoidalari"da shakl va mundarijani tashkillantiruvchi adabiy unsurlar haqida to'xtaladi. Ularni mavzu, mundarija kabi istilohlar bilan talqin qilish davomida ijodkorning laboratoriyasidan kelib chiqib, shakl unsurlari yoki mazmun jihatlari deb emas, balki "yozish qoidalari" deb atagan. Zamonaviy adabiyotshunoslikdagi sobit qoidalarga ko'ra mazmunning tarkibiy jihatiga mavzu, g'oya va muammo kiradi. Shuni unutmagan Fitrat mavzu

va mundarija (g'oya va muammoni o'zaro biriktirgan holda) kabi tushunchalarga adabiy sharhlar yozdi. Shakl unsurlari sifatida obraz, syujet, kompozitsiya va badiiy nutq asarni butunlikda tutib turuvchi komponentlar ekanini anglatib timsol (obraz), tartib (syujet), tarkib (kompozitsiya) va badiiy nutqqa doxil bo'lgan tasvir vositalari haqida ma'lumot berishni o'zining vazifasi deb bildi [Fitrat, 1995; 21-23]. Shuni ham unutmaslik kerakki, ushbu tasnif qabul qilingunga qadar mumtoz adabiyotdagi obrazlar tizimi qisman tasavvuf adabiyotining nazariy manbalarida, qisman poetika, ayniqsa, ilmi bade' tarkibida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Badiiy timsolning sifati, vazifasi, ma'nodorligi, undagi ko'chim tabiati haqida tahlil va talqinlar mavjudki, ularni o'z o'rnida, tasavvufiy timsollar, badiiy san'atlar bilan bog'liq holda o'rganganimiz uchun ham bunday namunalar ayni tarkibida emas, balki ilmi bade'ga doxil qismda anglatildi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy nutq tarkibida qaraladigan poetik leksika, fonika va poetik sintaksisga doir mulohazalar mumtoz poetika tarkibida alohida ilm sifatida qaralgan. Shuning uchun ham ularni o'rni bilan badiiy san'atlar hamda badiiy nutq va uslub boblari vositasida tavsiya qilindi.

Demak, zamonaviy adabiyot nazariyasining asosiy konseptual masalasi hisoblangan shakl va mundarija hamda ularning dialektik birligi haqidagi qarashlar faqat XX asr falsafasida yoki G'arb adabiyotshunosligida yoki izchil estetika shakllanishiga turtki bergan Gegel qarashlari doirasida yaratilmagan, balki ming yillardan beri musulmon sharqida mavjud bo'lgan, o'zini ibtidosini barcha mo'jizotlarning sharhi hisoblangan Qur'oni karimdan olgan va islomiy-tasavvufiy falsafa taraqqiyoti hamda badiiy tafakkur tadriji bilan bu munosabat taraqqiy etib, joriy mushakkal bir ilmiy tizimga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov, A. (2005). *Turkiy adabiyotning qadimgi davri*. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.
2. Al-Askari. (1983). *Divan al-maoniy*. V A.B. Kudelin (Red.), *Srednevekovaya arabskaya poetika: vtoraya polovina VIII-XI vek*. Moskva: Nauka.
3. An-Naym. (2003). *Arabcha-o'zbekcha lug'at*. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
4. Attor, F. (1994). *Ilohiynoma: nasriy tarjima, talqin va tafsir*. Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti.
5. Baranov, X.K. (1985). *Arabsko-russkiy slovar*. Moskva.
6. Boltabayev, H.U., & Umarova, M.Y. (2020). Problem of creative individuality and main hero in Bayron and Chulpon's lyrics. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(7), 134-139.
7. Boltabayev, H.U., & Umarova, M.Y. (2022). Rapprochement of western and eastern views in the study of the problem of a literary hero. *Scientific Culture*, 8(3), 205-211.
8. Boltaboev, H. (2004). *Mumtoz so'z qadri*. Toshkent: "Adolat" nashriyoti.
9. Eyxenbaum, B. (1986). *O proze: o poezii*. Leningrad: Xudojestvennaya literatura.
10. Fitrat, A. (1919, 24-oktabr). She'r va shoirliq. "*Ishtirokiyun*" gazetasi.
11. Fitrat, A. (1995). *Adabiyot qoidalari* (nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi H.Boltaboev). Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
12. Fitrat, A. (1996). She'r va shoirliq. "*Muloqot*" jurnali, 4.
13. Forobiy, Abu Nasr. (1993). *Fozil odamlar shahri* (arabchadan tarjima, izoh va muqaddimalar muallifi A.Irisov). Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
14. Fuad, K.M. (1980). *Turk Edebiyati Tarihi*. Istanbul: Oteken.

15. Ja'far, Qutaba ibn. (1956). *Kitab naqd ash-shi'r*. Leyden.
16. Jirmunskiy, V.M. (1977). *Teoriya literatury: poetika: stilistika*. Leningrad: Nauka.
17. Jomiy, A. (1971). *Silsilatu-s-zahab: tanlangan asarlar* (Tuzuvchi va so'zboshi muallifi Sh.Shomuhamedov). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
18. Kazakbaeva, D.J. (2022). The problem of studying genres with complex structures in uzbek classical literature. *Academicia Globa Inderscience Research*, 3(10), 43-46. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/XR5F3>.
19. Khamraeva, O.J. (2020). The rhyming study at "Funun ul-balaga". *Journal of Critical Reviews*, 7(3), 482-484. <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.03.88>.
20. Krachkovskiy, I.Y. (1956). *Arabskaya poetika IX veka*. Leningrad: Akademiya nauk.
21. Kudelin, A.B. (1983). *Srednevekovaya arabskaya poetika: vtoraya polovina VIII-XI vek*. Moskva: Nauka.
22. Navoiy, A. (1991). *Hayrat ul-abror*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
23. Orzibekov, R. (2006). *Adabiy merosimiz sehri*. Samarqand.
24. Orzibekov, R. (2006). *O'zbek lirik she'riyati janrlari*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
25. Pospelova, G.N. (Red.). (1988). *Vvedenie v literaturovedenie*. Moskva: Visshaya shkola.
26. Qur'oni karim. (1992). *O'zbekcha izohli tarjima*. Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti.
27. Qutayba, Ibn. (1969). *Ash-Shi'r va ash-shu'ara*. Beyrut.
28. Rumi, J. (1997). *Ichindagi ichindadir* (turkchadan Abduvahob U. tarjimasi). Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti.
29. Sa'diy, A. (1924). *Amaliy ham nazariy adabiyot darslari*. Toshkent: O'rta Osiyo Davlat nashriyoti.
30. Sezgin, F. (1975). *Geschichte des arabischen Schrifttums*. Leiden.
31. Taroziy, Sh.A. (1996). *Fununu-l-balog'a*. Toshkent: "Xazina" nashriyoti.
32. Tomashevskiy, B.V. (1931). *Teoriya literatury: poetika*. Moskva.
33. *G'iyosul-lug'ot*. (1988). Dushanbe: "Adib" nashriyoti.
34. Shklovskiy, B.V. (1983). *O teorii prozi*. Moskva: Sovetskiy pisatel.

REFERENCES

1. Abdurakhmanov, A. (2005). *The ancient period of Turkish literature*. Tashkent: 'New Age Generation' Publishing House.
2. Al-Askari. (1983). Sofa al-maoniyyi. In A.V. Kudelin (Ed.), *Medieval Arabic poetics: the second half of the VIII-XI century*. Moscow: Science.
3. An-Naim. (2003). *Arabic-Uzbek dictionary*. Tashkent: Publishing House of People's Heritage named after Abdulla Qadiri.
4. Attor, F. (1994). *Theology: Prose translation, interpretation and tafsir*. Tashkent: 'Writer' Publishing House.
5. Baranov, S.K. (1985). *Arabic-Russian dictionary*. Moscow.
6. Boltabayev, H.U., & Umarova, M.Y. (2020). Problem of creative individuality and main hero in Bayron and Chulpon's lyrics. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(7), 134-139.
7. Boltabayev, H.U., & Umarova, M.Y. (2022). Rapprochement of western and eastern views in the study of the problem of a literary hero. *Scientific Culture*, 8(3), 205-211.
8. Boltaboev, H. (2004). *Classic word value*. Tashkent: 'Justice' Publishing House.
9. Eichenbaum, B. (1986). *Prose: poetry*. Leningrad: Fiction.
10. Farabi, Abu Nasr. (1993). *The city of virtuous people* (translated from Arabic, written by A. Irisov). Tashkent: Publishing House of People's Heritage named after Abdulla Qadiri.
11. Fitrat, A. (1919, October 24). Poetry and poetry. *'Ishtirokyun'* Newspaper.
12. Fitrat, A. (1995). *Literary rules* (preparer for the publication, author of the foreword and comments – H.Boltaboev). Tashkent: 'Teacher' Publishing House.

13. Fitrat, A. (1996). Poetry and poetry. *Journal of 'Communication'*, 4.
14. Fuad, K.M. (1980). *History of Turkish Literature*. Istanbul: Oteken.
15. *Ghiyosul-luguot*. (1988). Dushanbe: 'Adib' Publishing House.
16. *Holy Quran*. (1992). Uzbek annotated translation. Tashkent: 'Cholpon' Publishing House.
17. Ja'far, Qutaba b. (1956). *Kitab naqd ash-shi'r*. Leiden.
18. Jami, A. (1971). *Silsilatu-s-zahab: selected works* (compiler and foreword author Sh.Shomuhamedov). Tashkent: Gafur Ghulam Publishing House of Literature and Art.
19. Kazakbaeva, D.J. (2022). The problem of studying genres with complex structures in uzbek classical literature. *Academicia Globa Inderscience Research*, 3(10), 43-46. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/XR5F3>.
20. Khamraeva, O.J. (2020). The rhyming study at "Funun ul-balaga". *Journal of Critical Reviews*, 7(3), 482-484. <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.03.88>.
21. Krachkovsky, I.Y. (1956). *Arabic poetics of the 9th century*. Leningrad: Academy of Sciences.
22. Kudelin, A.B. (1983). *Medieval Arabic poetics: the second half of the VIII-XI centuries*. Moscow: Science.
23. Navoi, A. (1991). *Hayrat ul-Abrar*. Tashkent: 'Science' Publishing House.
24. Orzibekov, R. (2006). *Genres of Uzbek lyric poetry*. Tashkent: 'Science' Publishing House.
25. Orzibekov, R. (2006). *The magic of our literary heritage*. Samarkand.
26. Pospelova, G.N. (Ed.). (1988). *Introduction to literature*. Moscow: High School.
27. Qutayba, Ibn. (1969). *Ash-Shi'r and ash-Shu'ara'*. Beirut.
28. Rumi, J. (1997). *Inside is inside* (translated from Turkish by Abduvahhob U.). Tashkent: 'Writer' Publishing House.
29. Sa'di, A. (1924). *Practical and theoretical literature lessons*. Tashkent: State Publishing House of Central Asia.
30. Sezgin, F. (1975). *History of Arabic writing*. Leiden.
31. Shklovsky, V.V. (1983). *On the theory of prose*. Moscow: Soviet Writer.
32. Tarozi, Sh.A. (1996). *Fununu-l-baloga*. Tashkent: 'Treasure' Publishing House.
33. Tomashevsky, V.V. (1931). *Theory of literature: Poetics*. Moscow.
34. Zhirmunsky, V.M. (1977). *Theory of literature: poetics: stylistics*. Leningrad: Science.